

**BIRIKTIRUVCHI TO'QIMA DIFFERENSIALLASHMAGAN  
DISPLAZIYASI MAVJUD HOMILADORLARDA HOMILADORLIK VA  
TUG'RUQ ASORATLARI**

*Angren universiteti Davolash ishi kafedrasi o'qituvchisi, akusher-ginekolog*

***Nasirova Durdonaxon Yusupjonovna***

[durdonaxonnasirova96@gmail.com](mailto:durdonaxonnasirova96@gmail.com)

**Dolzarbligi:** biriktiruvchi to'qima differensiallashtirmagan displaziyasi biriktiruvchi to'qima tuzilishida asosiy o'rin tutuvchi kollagen sintezi va metabolizmi buzilishi bilan kechadigan patologiyadir. Ayrim mualliflar ma'lumotiga ko'ra biriktiruvchi to'qima differensiallashtirmagan displaziyasi reproduktiv yoshdagi ayollarning 13-65%ida uchraydi. Bu sindrom reproduktiv yoshdagi ayollar orasida keng tarqalganligi uning tug'ruq va homiladorlik kechishiga ta'sirini o'rganish muhim ekanligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot maqsadi:** biriktiruvchi to'qima differensiallashtirmagan displaziyasi mavjud ayollarda homiladorlik, tug'ruqning kechishi va perinatal natijalarni o'rganish.

**Material va usullar:** Angren shahar tug'ruq kompleksida 96 ta homilador tanlab olindi. Biriktiruvchi to'qima differensiallashtirmagan displaziyasi mavjud guruhga biriktiruvchi to'qima differensiallashtirmagan displaziyasi fenotipik belgilar shkalasi bo'yicha 6 va undan yuqori ballga ega bo'lgan 49 ta ayol kiritildi. Nazorat guruhi esa sog'lom 47 ta ayoldan iborat bo'ldi.

**Natijalar va munozaralar:** biriktiruvchi to'qima differensiallashtirmagan displaziyasi mavjud homiladorlarda nazorat guruhidagilarga nisbatan homiladorlik asoratlari sezilarli darajada ko'p kuzatildi. Xususan, homila tushish xavfi va boshlangan homila tushishi 1-guruhda 46.9%, nazorat guruhida esa 6.4%ni tashkil etdi ( $p<0.0001$ ). Istmiko-servikal yetishmovchilik (mos ravishda 18.3% va 2.1%,  $p=0.009$ ), kamqonlik (34.7% va 8.5%,  $p=0.002$ ), gestatsion piyelonefrit (28.6% va 4.3%,  $p=0.002$ ), preeklampsiya yengil darajasi (16.3% va 2.1%,  $p=0.02$ ) ham biriktiruvchi to'qima differensiallashtirmagan displaziyasi mavjud homiladorlarda ishonchli darajada

ko'proq kuzatildi. Shuningdek, bu guruhdagi ayollarda qog'onoq pardasining muddatdan oldin yorilishi (53% va 17%,  $p=0.0002$ ), muddatdan oldingi tug'ruq (22.4% va 6.4%,  $p=0.04$ ), tug'ruq kuchlarining birlamchi va ikkilamchi sustligi (28.6% va 10.6%,  $p=0.04$ ) chastotasi ham sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

Biriktiruvchi to'qima differentsiallashtirmagan displaziyasi mavjud ayollardan tug'ilgan chaqaloqlar vazni va bo'yi  $3090\pm 400$  g va  $49.6\pm 2.0$  smni, nazorat guruhidagilarda esa  $3590\pm 400$  g va  $52\pm 2$  smni tashkil qildi ( $p>0.05$ ). Asosiy guruhdagi ayollardan tug'ilgan chaqaloqlarning 16%ida, nazorat guruhidagilarning esa 2.1%ida markaziy nerv sistemasining gipoksik-ishemik shikastlanishi kuzatildi ( $p<0.05$ ). Biriktiruvchi to'qima differentsiallashtirmagan displaziyasi mavjud ayollardan tug'ilgan chaqaloqlarda kichik yurak nuqsonlari (chap qorincha qo'shimcha xordasi) nazorat guruhidagi ayollar farzandlariga nisbatan sezilarli miqdorda ko'p uchradi (mos ravishda 26% va 6.3%,  $p<0.01$ ). Bu esa biriktiruvchi to'qima differentsiallashtirmagan displaziyasi perinatal natijalarga ham ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi.

**Xulosalar:** 1. Homila tashlash va muddatidan oldingi tug'ruq biriktiruvchi to'qima differentsiallashtirmagan displaziyasi mavjud ayollarda homiladorlik asoratlarning patognomik belgisi hisoblanadi. Xususan, 1-trimestrda boshlangan abort va abort xavfi asosiy guruhdagilarda 7.3 marta ( $p<0.0001$ ), 2-trimestrda istmiko-servikal yetishmovchilik 8.6 marta ( $p<0.01$ ), 3-trimestrda esa muddatidan oldingi tug'ruq 3.5 marta ( $p=0.04$ ) ko'proq kuzatildi.

2. Biriktiruvchi to'qima differentsiallashtirmagan displaziyasi mavjud ayollardan tug'ilgan chaqaloqlarning har 6-sida markaziy nerv sistemasining gipoksik-ishemik shikastlanishi, har 4-sida esa chap qorincha qo'shimcha xordasi kuzatildi.